

**MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

Azizbek Abduqaxxorovich Xalildinov

Farg‘ona davlat universiteti,
Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrası o‘qituvchisi

**ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

Азизбек Абдукаxхорович Халилдинов

преподаватель кафедры мировой и региональной экономики
Ферганского государственного университета

**PRIORITIES FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND
PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE NATIONAL ECONOMY**

Azizbek Abdukaxharovich Khalildinov

lecturer at Fergana State University,
Department of world and regional economics

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish tarmog‘i.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta‘minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida O‘zbekistonda so‘nggi yillarda eksportga yo‘naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining eksport hajmining o‘shishiga qo‘shayotgan hissasi ortmoqda. Qolaversa, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida O‘zbekistonda so‘nggi yillarda eksportga yo‘naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining eksport hajmining o‘shishiga qo‘shayotgan hissasi ortmoqda. Bu esa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili

ekanligini amaliyotda isbotlab bermoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, jamiyat ijtimoiy barqarorligining asosi hisoblanuvchi o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz SH. M. Mirziyoev "...tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart. Kerak bo'lsa, xorijdagi etakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o'zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug'dirib berishimiz lozim", deb ta'kidlab o'tganlar. Shuningdek, iqtisodiyotni isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati va roli muhim o'ringa ega. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aksariyat qismi oilaviy korxonalar shaklida ish yuritmoqda. Evropa davlatlari yalpi milliy mahsulotining 40-50 foizini, Osiyo mamlakatlarida 65 foizdan 82 foizgachasini, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqinini oilaviy biznes ishlab chiqaradi. AQSH iqtisodiyotida uning ulushi 95 foizdan ziyod miqdorni tashkil etadi. Iqtisodiyoti rivojlangan ko'plab mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoyalovchi hamda kichik biznes va xususiy korxonalarining faoliyat ko'rsatishi borasida tajriba almashish uchun munozara maydonlarini tashkil etuvchi maxsus birlashmalar mavjud. Bunday yondashuv aholini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni kengaytirish, oilaviy an'analarni oilaviy tadbirkorlar sulolasini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Dunyoning rivojlangan davlatlari ko'rsatkichlari - Polshada- 51foiz, Germaniyada- 53foiz, Finlyandiyada - 50 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizda esa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi ulushi 2021 yilda esa 54,9 foizni, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 27 foizni, qurilishda 72,4 foizni, bandlikni ta'minlashdagi ulushi esa 74,4 foizni, eksportdagi ulushi 22,3 foiz, importdagi ulushi esa 48,7 foizni tashkil etdi. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,8 foizni tashkil etdi. Bundan oldin xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshgandi. 2022 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi 40,3 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkich o'tgan yil mos davrida 39 foizni tashkil etgan edi. Taqqoslash uchun, joriy yilda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foizga oshgan.

O'zbekistonda joriy yilning yanvar-noyabr oylarida faoliyat boshlagan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) 83 ming 623 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, savdo sohasida 31 ming 897 ta, sanoat tarmog'ida 14 ming 948 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi yo'nalishida 11 ming 321 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 ming 394 ta, qurilishda 4 ming 386 ta, tashish va saqlash sohasida 3 ming 108 ta yangi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat boshlagan. Ro'yxatni axborot va aloqa (2 ming 410 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 ming 408 ta) sohalari davom ettirgan.

Shuningdek, mamlakatimizda mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishlik, ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bugungi kunda davlat organlari va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli tadbirkorlik sub'yekti internet tarmog'i orqali yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olinmoqda va bu tadbirkorlarga yaratilayotgan qulayliklarning bir turi bo'lib hizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda tadbirkorlik sub'ektkari 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning faoliyat yuritishini engillashtirish bilan bog'liq 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi va bu jarayonlar davom etmoqda. Agar tadbirkorlik sub'yekti soliq va bojxona qonunchiligini buzgan bo'lsa, uning mulki faqat sud qaroriga binoan musodara qilinishi mumkinligini belgilaydigan qonun normasi joriy etildi, da'vo arizasini ko'rib chiqish muddatlari ham sezilarli ravishda qisqartirildi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishning samarali mexanizmini joriy etish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- aholining ahamiyatli qismini ish bilan bandligi ta'minlanadi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat eksport xajmidagi ulushini ortishga xizmat qiladi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faoliyatida yangi texnika va texnologiyalarni joriy etiladi;
- pirovardida aholining turmush darajasini yanada oshirishga erishiladi.

Umuman olganda, mamlakatimizda kichik biznesga investitsiyalarni keng jalb etish va ularning jozibadorligini oshirish, hamkorlikdagi istiqbolli loyihalarni

amalga oshirish, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon bozorlari talabi darajasiga ko'tarishga imkoniyat yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizdagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hukumat hamda mahalliy boshqarish organlarining birgalikdagi sa'y-harakati yordamida kichik biznesni rivojlantirish sharoitini yaxshilashda sezilarli natijalarga erishish mumkin, bu esa o'z navbatida O'zbekistonda kichik biznes sub'yektlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni isloh qilishda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda ichki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi, bu esa YaIM hajmi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Маннопова, М. С. (2018). Turizm yo'nalishida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.

2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+ дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёш аҳолини ўқитиш ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.

3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодийнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.

4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г.Москва*, 1(9), 23-25.

5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.

6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.

7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Viznes-эксперт*, 1(6), 48-52.

8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).

9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.
12. Mannopova, M. S. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ– ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 117-120.
15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannopova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Инновации в рамках национальных инновационных систем. *Интернаука*, (26), 6-8.
22. Abdullaeva, S. E. (2021). The urgency of attracting investment to banks. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 435-440.
23. Абдуллаева, Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. In *МИНТАҚА*

ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 506-512).

24. Абдуллаева, Ш. Э., & Жакбарова, З. С. (2020). РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 345-350).

25. Rakhimov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFICATION OF INNOVATION PROCESSES IN INDUSTRY. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 127-133.

26. Абдуллаева, Ш. Э. (2019). Современное состояние и перспективы развития банковской системы в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 180-182.

27. Khakimov, D. R., Kurbanov, D., & Khalildinov, A. A. (2022). Formation of New Economic Mechanisms in the Field of Education. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 76-81.

28. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.

29. Khakimov, D. R., Khalildinov, A. A., & Abdullaeva, S. E. (2022). THE MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 94-100.

30. Қурбонов, Д. Х. (2022). Олий таълим соҳосида бозор муносабатлари ривожланишининг асосий омиллари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 39-41.

31. Khalildinov, A. A., & Ashurov, S. S. (2022). The Importance of Rational Use of Natural Resources in the Economy and Specific Features of its Management. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 82-85.

32. Халилдинов, А. А. (2021). Иқтисодий рақамлаштиришда инновациялар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(6), 296-301.

33. Халилдинов, А. А. (2021). Инвестиция сиёсатининг асосий йўналишлари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 146-150.

34. Хакимов, Д. Р. (2022). Олий таълим тизимида янги иқтисодий механизмларни шакллантириш. *Biznes-эксперт*, 1(6), 34-39.

35. Халилдинов, А. А. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(2), 87-96.